


**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGUKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKUL'TETI "MUSIQA" KAFEDRASI**

Ilmiy nazariy va amaliy uslubiy seminar ishlanmasi

**Mavzu: DARVISH ALINING FAZOVIIY (KOSMOLIGIK)
QARASHLARIDA 12 – MAQOM FALAK BURJLARI
(Darvesh Ali Changiy yirik mutafakkir va ruhshunos sifatida)**

seminar



**Saidiy Said Bolta-Zoda
San'atshunoslik fanlari nomzodi,**

Navoiy-2014

Sana: 10.02.2014.

DARVISH ALINING FAZOVIY (KOSMOLIGIK) QARASHLARIDA 12 – MAQOM FALAK BURJLARI

Darsning maqsadi:

- 1. Tarbiyaviy maqsad:** Talabalarda milliy cholg'ular morfologiyasi va ergologiyasini o'rgatish va alohida ehtirom bilan qarashni tarbiyalash.
- 2. Ta'limiy maqsad:** cholg'ushunoslik fanining mutaxassislik fani bilan izchil bog'liqligi va dolzarbligini yoritib berish.
- 3. Rivojlantiruvchi maqsad:** Talabalarning milliy va jahon cholg'ulari haqidagi bilim va tushunchalarini rivojlantirish.
- 4. Kasbga yo'naltiruvchi maqsad:** Talabalarni musiqa tarixi (osiyo, milliy va sharq cholg'ulari tuzilishi, shakli, xomashyosini o'rganish)ga qiziqtirish, musiqashunoslik kasbiga yo'naltirish.
- 5. Milliy istiqlol g'oyasi:** Talabalarni milliy vatanparvarlik hamda xalaqaro birodarlik ruhida tarbiyalash.

Dars rejasi:

Reja:

- 1. Darvish Ali Changiy ta'limoti va zamondoshlari**
- 2. 12-Maqom falak burjlari**
- 3. Shashmaqom va makon semantik talqini**
- 4. Buzruk maqomidan tasnifi buzruk maqomining tahlili**
- 5. Xulosa**
- 6. Foydalanilgan adabiyotlar**
- 7. Innovasiya:** kalitli so'zlar va sayt glosariy

Darsning jihozi:

- 1.reja, video proyektor.
2. O'zbek milliy cholg'ularining zamonaviy jahon standartlariga xos guruhlarda joylanishi.
- 3.innovasiya
4. kolokvium

Navoiy davlat pedagogika instituti, “Musika” kafedrası s.f.n.dots v/b, Saidiy Said Bolta-Zodaning VKMOvaQTIning “Misiqa” yo’nalishi bo’yicha tayyorlagan “Darvish Alining fazoviy (kosmologik) qarashlarida 12 – maqom falak burjlari” mavzusidagi Ilmiy nazariy va amaliy uslubiy seminar ishlanmasiga

TAQRIZ

Shashmaqom movoraunnaxrning piru mo’jizasi va xalqlarning tarixiy hayoti va mamoti bilan hamnafas bog’langan musiqiy ramzidir. Mazkur tamoyildan 200 va undan ortiq asrlar davomida o’ziga xos davriy qarashlarda shakllanib, rivojlanib kelgan. Darvesh Ali merosini atroflicha mutolaa qilish alohida ilmiy mavzu. Seminarining nuqtai nazarida Darvesh Alining maqom bilan bog’langan burjlarning tushunchasi va fazoviy talqinida allomalarning qarashlari qiziqarli misollarda yorqin ifoda etilganligi bilan e’tiborlidir.

SHashmaqomni musiqiy nav sifatida shakllanish tarixi, uning ilmiy asoslari bilan bog’liq tayanch manbalar – musiqiy risola, bayoz sho’ro davrida rasm etilgan yuzaki qarashlarni bartaraf etishga harakat qilinmagan. Aynan Buxoro shashmaqomida bo’lgan buzruk, rost,navo,dugoh,segoh va iroq maqomi Xorazmda ham xuddi shunday nomlanishga ega. Muammo tarzida ulardagi usul majmuasi ham semantik jihatdan yoritilmagan yangi tadqiqotdir.

I.Rajabovning “Maqomlar” nomli shoh asari tadqiqotimizda asosiy manbalardan biri bo’lib xizmat qildi.

Xullas; “Musika” kafedrası s.f.n.dots v/b, Saidiy Said Bolta-Zodaning VKMO va QTI-ning “Misiqa” yo’nalishi bo’yicha tayyorlagan “Darvish Alining fazoviy (kosmologik) qarashlarida 12 – maqom falak burjlari” mavzusidagi Ilmiy nazariy va amaliy uslubiy seminar ishlanmasi qiziqarli misollar va innovasiyalarda bajarilgan bo’lib, ustoz-shogird tizimi asosida ushbu seminarni keng qamrovli audetoriyalarda nazariy va amaliy ijrolarda o’tkazishni tavsiya etaman.

Taqrizchi:

F.T.Bo’ronov

O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan xalq ta’limi xodimi

SEMINAR INSTRUKSIYASI

Q'adimdan xalq tomoshalari ko'rinishida bo'lib, musiqa va teatr sifatida shakllangan bu san'at doim ijtimoiy hayotga munosabat tusini olgan. Inson turli chegaralarni tuzadi, ammo san'at chegarani bilmaydi: G'arbu Sharqda ham, Shimolu Janubda ham u inson manzaralarini namoyish etaveradi. San'atning mintaqasi ham chegarasizdir!..¹I.A.Karimov

1. DARVISH ALI CHANGIY TA'LIMOTI VA ZAMONDOSHLARI

Darvesh Ali CHangiy. Buxoroda yashab ijod etgan bu ulug' musiqashunos, san'atkor hayotining so'nggi yillari Imomqulixon zamoniga to'g'ri keladi. Uning oxirgi yirik musiqiy risolasi aynan shu Imomqulixonga bag'ishlangan. Ma'lumki, mazkur davr Movarounnahr tarixida ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgarib, ko'proq diniy hurofotga yuz tutilgan payt edi. Madaniy-ma'rifiy sohada ham Temuriylar saltanatida oliy maqomda bo'lgan va buyuk cho'qqilarga erishgan nafis san'atlarga e'tibor kamaya boshladi. SHuning uchun Darvesh Alining musiqiy ta'limoti, davr taqozosiga ko'ra, Kavkabiyligidan boshqacharoq ehtiyojlarga qaratilganligi bilan xususiyatlanadi.

Bundan tashqari, badiiy ilmlar sohasida mukammal tarbiya topgan, she'riyat va musiqiy san'atlarga o'ta ishqiboz bo'lgan Ubaydulloxondan farqli ravishda Imomqulixon nafis san'atlarga uncha iltifotli bo'lmagan. SHul sababdan, allomai zamon Darvesh Ali CHangiy musiqa borasida ilmiy-nazariy qarashlar bilan bir qatorda bu fanning sharofati haqida hadis hikmatlar keltirish va zamondoshlar ongiga singib ketgan aqidalarga muvofiq rivoyat hamda afsonalarga tayanib fikr yuritishga majbur edi.

Darvesh Ali merosini atroflicha mutolaa qilish alohida ilmiy mavzu. Biz hozirlayotgan tadqiqot nuqtai nazaridan Darvesh Ali risolasi, birinchi navbatda, maqomot ilmiga taalluqli taraflari bilan e'tiborlidir. Unda bayon etilgan mavzuga oid diniy va dunyoviy mushohadalar, ilmiy-nazariy qarashlar, hayot tajribasida pishib odat tarziga aylangan bilim va tushunchalar, avloddan avlodga o'tib kelayotgan rivoyatlar, ko'hna dunyodan meros qolgan afsonalar maqomot asoslari

¹ · I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. «O'zbekiston», Toshkent-1997 yil.

hamda uning uzoq va yaqin tarixini idroklashda muhim manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Marog'iyning "Maqosid al-alhon"ida musiqaning bosh omili bo'lmish nag'maning to'rtta asosiy manbai qayd etiladi. Birinchisi, hisob ilmi negizida hosil qilingan nag'malar. Ya'ni, past-balandligi sonlar nisbati bilan ifodalanadigan nag'ma birliklari. Ikkinchisi, handasa ilmi, ya'ni, cholg'u asboblardagi torlarning uzun-qisqaligini o'lchash yo'li bilan yuzaga keltiriladigan nag'malar. Uchinchisi, ilmi ta'ab, ya'ni, insonning irodasi va his-tuyg'ulariga (hayojon, sokinlik, qo'rquv, shijoat, g'am, shodlik va boshqalar) kabi ruxiyyotga xos muvofiq sodir bo'ladigan nag'malar. To'rtinchisi, urf etilgan ilmlardan yuzaga keladigan nag'malar.« Risola qismidagi ma'lumotlar orasida Kavkabiyy ijodi, ayniqsa, uning Kuliyotini SHashmaqomga bog'langan tomonlari diqqatga loyiq.

2.O'N IKKI (12)-MAQOM FALAK BURJLARI

Shashmaqom movoraunnaxrning piru mo'jizasi va xalqlarning tarixiy hayoti va mamoti bilan hamnafas bog'langan musiqiy ramzidir. Mazkur tamoyildan 200 va undan ortiq asrlar davomida o'ziga xos davriy qarashlarda shakllanib, rivojlanib kelgan. Maqomlarning nafaqat nom-nishonalari, balki ular atrofida yuzaga keladigan fikr-mulohazalar ham doimiy almashib turadi — degan xulosa kelib chiqadi. **«Darvesh Ali Aflotun zamonlarida taraqqiy topgan fazoviy (kosmologik) qarashlarga ko'ra, 12 maqom falak burjlari Rost-Hamal, Isfahon-Savr, Iroq-Javzo, Kuchak-Saraton, Buzruk-Asad, Hijoz-Sumbula, Busalik-Mezon, Ushshoq-Aqrab, Navo-Qavs, Husayniy-Jadiy, Zangula-Dalv, Rahoviy-Hutdan taralganligi qayd etiladi.**

Shu bilan barobar 12 maqom Hazrati Muso hassasini toshga urganda paydo bo'lgan 12 buloqdan chiqqan ovozlardan iboratligi haqidagi mashhur afsona ham tilga olinadi»-deyilgan.

Undan keyin yana hayotiy voqealarga qaytib, ustozlar o'z bilim va mahoratlarini ishga solib, har bir maqomning yuqori va pastki bo'lagini ajratib, ikki sho'ba, ikki maqomni qo'shilishidan bir ovoz va ikki ovozni birlashtirib, bir

rang qilganliklari tushuntiriladi. Ya'ni ushbu davr olimlarining ilmiy qarashlaridan kelib chiqib 12- maqom Buxoro ajdodiy san'ati bo'lmish "Shashmaqom"ga aylana borgan.


« Darvesh Ali risolasida barqaror odat tusini olgan maqom atamaları bilan bir qatorda, amaliyotga tadbiq qilinmaganlari ham mavjudligi e'tirof etiladi. Faqat Husayniy-Zerkash, Kuchakni-Zerafkand, Iroqni-Qavro, Zangulani-Nahovand, Rostni-Ummul advor, Hijozni-Nigoriy, Busalikni-Chakoviy, Navoni-Nag'mai Dovudiy, Ushshoqni-Tarona, Buzrukni-Avj deyilganligi tilga olinadi. Ushbu nuqtai nazardan iyqoot masalalariga bag'ishlangan 4-bobni "Mutaorif 17 usul bahri va 24 g'ayri mutaorif usul ma'rifati haqida" — deb nomlanishining o'zi alohida diqqatga savozor. Mazkur bob — "Bilginki, 12 usul qadimiydir" — deb boshlanadi. Bundagi "qadim" atamasi "sara", "mumtoz" ma'nosini anglatadi. Ya'ni, tajribada pishib yetilgan, ajdodlar tomonidan e'zozlangan mo''tabar usullar demakdir.

Darvesh Ali risolasining boshqa bir qiziqarli jihati mumtoz usullarning jonzoqlar harakati bilan bog'liq ekanligi haqidagi naqlar misol keltirilishidadir. Jumladan, «Zarb-ul qadim»deb nomlanadigan ibtidoiy usul yurak tomirlarining urishidan olinganligi to'g'risidagi mulohaza musiqiy ahli orasida juda keng tarqalgan. Duyak usuli xo'roz ovozidan, Foxitiiy-yovvoyi kabutar, Saqiyl-to'ti, Ramal jul (tovus) qushi navosidan, Gaxvogiiy-go'dak sadosidan, Bulujiiy-misgarlar damining tovushidan kelib chiqqanligi to'g'risidagi chiroyli gaplar ham muxlis va shinavandalar orasida maroq bilan hangoma qilingan»-deyilgan.

Qancha rivoyat va afsonalar pesh qilinmasin, urf etilgan usullar aslida musiqa ilmini o'ziga yaqin tutgan ulamolar ijodiga mansubligi jiddiy qayd etiladi. Xususan, Mirzo Ulug'bek usul ilmiga baland havas qo'yganligi, Sulton Husayn Boyqaro yaratgan 17 usul hamda Vazir Alisher Navoiy ijodiga mansub 7 usul elda ma'lumu mashhur bo'lgan, deganligi ham diqqatga sazovordir. Ammo mumtoz musiqa negizidagi usullar advor ta'limotining peshvolari tomonidan ushbu fanning ilmiy-nazariy tamoyillari asosida ishlanganligi va bu sohada Xoja Abdulqodir "Sar-omadi advor" martabasini egallaganligi alohida ta'kidlanadi. Sarlavhada

ko'rsatilgan 17 mutaorif usul aynan shu Xoja Abdulqodir merosi va qolgan 24 g'ayri mutaorif usullar boshqa ustozlar tomonidan yaratilganligini Darvesh Ali ko'rsatib o'tadi.

Nihoyat, Darvesh Alining musiqiy risolasi ilmi, nazariy yo'nalishi Kavkabiynikidan farqli ravishda musiqiy ilmlarga qaratilganligining yana bir isboti shundaki, mazkur bobda oldin amaliy bilimlar sarhisob etilib, mumtoz 17 usul mundariyasi keltirilgandan so'ng, nazariy tushuncha (niqra, zarb, bo'g'in, bahr)lar qo'shimcha o'rnida beriladi. Bu bo'lak foyda (ya'ni "qo'shimcha") deb, nomlanadigan alohida sarlavha bilan ajratiladi.



3.SHASHMAQOM VA MAKON SEMANTIK TALQINI

Musiq, - jahon ma'naviy siyosatining eng kuchli quroli , u ollohning yer yuziga yuborilgan mo'jizai olami, tilsiz va tengsiz qudratidir !.

***Musiq insonni beshikdan- qabrgacha uzluksiz tarbiyalash,
-sevish yo nafratlanish, kechirish, u yo bu abadiyattirilishiga qodir !!.***
S.B.Saidiy.

Buxoro maqomlari ichidan Tasnif, Saqil, Saraxbor, Muxammas kabi kuylar, shuningdek Xorazm maqomlari ichidagi Peshrav, Muxammas va Saqil kuylari doimiy hisoblanadi.

- Buzruk** - Eng katta, eng buyuk degan maononi bildiradi. Bu maqomni ijrochilari qizil xalatlar kiyishib ijro etishganlar va bu maqom tinglovchilarni xarbiy g'alabaga intilishga chorlagan. SHuning uchun Sohibqiron Amir Temur ham biron mamlakatga jangga chorlanganda askarlarini o'tqizdirib, oldin shu maqomni tinglatgan va undan keyin yo'lga ravona bo'lganlar. Bu maqomni tush paytida tinglasa maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Rost** - bir-biriga ros yoki mos degani. (Shu yo'lga, yaoni xudo yo'lga kirganim rost). Bu maqomni ertalab tinglasa juda xush yoqadi.
- Navo** - mungli kuy, yaoni, navo chekish (muhabbat yo'lida, xudo yo'lida oh, nola, navo chekish. Navoiy taxallusi ham shu so'zdan olingan). Bu maqomni kechasi soat birdan keyin (shomda) to'q xalatlar kiyishib ijro etishgan.
- Dugoh** - ikkita tayanch tovush (yoki ikki joy, yaoni bu dunyo u dunyo) maonosini bildiradi. Bu maqomni Xufton (dam olish) vaqtida tinglansa maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Segoh** - uchta tayanch tovush (yoki uch joy, yaoni, bolalik yoshlik, qarilik) maonosini bildiradi. Bu maqomni tushdan keyin ijro etilsa va tinglansa maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Iroq** - mamlakat nomini bildiradi. Bu maqomni hamma ijrochilar oq xalatlar kiyishib, ertalab quyosh chiqayotganda ayvonda oq parda ichida ijro etishgan. Demak, nonushta vaqtida tinglansa ham bo'ladi. Maqomni ijro etish qoidalari Namanganlik Mulla Xuday-Berdi risolalarida yozilgan. Qoidaga amal qilmagan sozandalarning cholg'u asboblari va xatlari olib qo'yilgan. Shuningdek, maqom haqida XVI asr shoiri va sozandasi Najmiddin Kaukabi asarlarida yozilgan o'shanda maqom to'liq shakllangan ekan.


Adabiyotlar

- 1.. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaniya (materialy simpoziuma) 1980 g.
- 2.. Yu. Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
3. Matyoqubov O. «Maqomat» Toshkent «Musiqa nashriyoti» 2005 y.
4. R. Yunusov Fattoxxon Mamadaliyevning «Milliy musiq a ijrochiligi masalalari» T.: «Yangi asr avlodi» nashriyoti 2001 y.

4. Buzruk maqomidan tasnifi buzruk maqomining tahlili
Bozgo'y, 1-xona, bozgo'y, 2-xona, bozgo'y, 3-xona, bozgo'y, 4-xona, bozgo'y, 5-xona, bozgo'y, 6-xona, bozgo'y, 7-xona, bozgo'y, 8-xona, bozgo'y.
Ja'mi 9=ta bozg'oy va 8 ta xonadan iborat.
Ilovada Nota taqdim etiladi.

I N N O V A S I Y A

Bastakorlik fanidan innovasion pedagogik texnologiyalar



*Inson, -yumushlari birla o'tar, qayg'ulidir bu damlar,
 ne oldindan qo'ysang maqsad, sabring erishtirar unga albat!
 Umring o'tsa tanhoyu na-kor, na-xotirot ul- qaytari zamon,
 - bilgin!, qabring ham unda bekor!!" S.B.Saidiy.*

Talabani kasbiga xos bilimini rivojlantiruvchi o'yinlar "Insert usuli"

CHOLG'U ERGOLOGIYASI - "cholg'u yasash uchun qo'llaniladigan xom ashyo va buyumlardan tortib sozlagunga qadar, - deyiladi." S.B.Saidiy.

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, cholg'ular haqida zamonaviy tasnif va ergologiyasi, diopozoni, qo'llanish sohasi,

kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

1 - ilova. **Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.


(?) - meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Jahon standartlari cholg'ular tasnifi	V	+	-	?
Idiofonlar	Qayroq			
Membronofon		Kongo		
Xordofon			Manzur	
Aerofon				Sur
Zoomorfologik va Pozoomorfologik	Burg'u			Ishqiriq
Afrotrop va Fergantrop		Afrika		Farg'ona
Poleolit, Shell, Ashel, so'ngi Ashel	Paqildoq			
Madlen va Mezolit	Nog'ora			
Neolit va Eneolit, temir bosqichlari		Nay		

O'tkazilgan sana: "10 " __02.2014__


3-ilova

"Cholg'ushunoslik" **Jahon standartlari tasnifi instruksiyasi**




4-ilova

Cholg'ushunoslik fanining fanlararo bog'lanish tarmoqlari




5-ilova

Cholg'ushunoslik ORKESTR va ANSAMBL turlanishida



6-ilova

CHOLG'ULARGA MOSLASHTIRISH va QAYTA ISHLASH




ORKESTR va ANSAMBLLARGA MOSLASHTIRISH



7-ilova

PAST va YUQORI AKADEMIK IJRO TUZULISHLARI



8-ilova

Milliy cholg'ular va ularga qo'shib ijro etiladigan IDIOFONLARda "izla-o'yla –top" o'yini.

O'yin instruksiyasi:


1. O'yin 5-ga bo'lingan bitta gurux bilan boshlanadi. Gurux soni 25 ta bo'lsa, demak 5 ta guruxchalarga bo'linib boshlanadi.
2. Slaytdan o'rin olmagan cholg'ular bilan davrani to'ldiring ;
3. Milliy cholg'ularga tegishli bo'lmagan cholg'u nomini kiritgan o'yindan chiqadi!;
4. Har bir cholg'u nomini kiritgan guruxchaga 1 – ball belgilanib, eng yuqori ballga erishgan g'olib hisoblanadi. Misol: 4- ta cholg'uga 4- ball, 10- ta cholg'u nomiga 10 ball belgilanib boriladi. G'olib 10 daqiqada hal bo'lishi shart!.
5. davrada 16 xil cholg'ularimiz nomlari keltirilgan bo'lib, qolgan cholg'ular va idiofonlardan iborat 15- tasi o'yinga kiritilmagan, bular;

Davradan o'rin olmagan cholg'ular va idiofonlar tasnifi; 1. "qo'sh-nog'ora",

2. "tablak", 3. "changqovuz", 4. "bo'lamon", 5. "G'ijjak", 6. "Dutor Kontra bas",


7. "rubob prima", 8. "dutor sekunda", 9. "chang bas", 10. "qoraqalpoq – qobuzi",


11. "nay pikalo" 12. "safoil", 13. "qayroq", 14. "zanglar", 15. "qoshuq", "al-ud".



10- ilova

«Cholg’u ijrochiligi» darslari jarayonida O’zbek xalq cholg’ularini «Klaster» (*Tarmoqlar*) ta’lim texnologiyasida qo’llanilishi







TALABALAR DIQQATIGA: Tarix bosqichlarida paydo bo'lgan jaxon cholg'ularini genezisiga qarab falsafaviy tuzilgan katakchalarni to'ldirining ?.

11-12 ilovalar

Jahon cholg'ularining tarix bosqichlarida paydo bo'lgan g e n e z i s i




Mutaxassislik strukturasi



Acosniy mutaxassislik faniga yo'naltirish innovasion texnologiyasi № 1-tartib.

CHOLG'U SOZGARLIGI YO'NALISHIDA LABARATORIAL BOSQICH



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Kitob, monografiya va to'plamlar

- 1.1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari.- T.: O'qituvchi, 1970.- 278 b.
- 1.2. Vizgo T.S. Ocherki Istorii Muzqkalg'noy kulg'tur Uzbekistana. Vipusk 1.- T.: Muzqqa, 1968.- 269 s.
- 1.3. G'ofurov B.G. Istoriya Tadjikskogo naroda. Izdanie vtoroe.- D.: Irfon, 1952.- 188 s.
- 1.4. Egina N. Ritmika o role ritma v vospitanii.- M.: Goslitizdat, 1927.- 210 s.
- 1.5. Karomatov F. Ispolg'nitelg'skie traditsii muzikalg'nox kulg'tur narodov Blijnego i Srednego Vostoka v usloviyax sovremennosti // Traditsii muzqkalg'nqx kulg'tur narodov Blijnego, Srednego Vostoka i sovremennostg'.- M.: Sovetskiy kompozitor, 1987.
- 1.6. Karimov B. Falsafa vahz matnlari.- T.: Fan, 1995.- 239 b.
- 1.7. Kosakovskaya I.E., Hakimov A.A. Evolyutsiya ornamentniki v keramike b Sentralg'noy Azii. Genezis, semantika, stilg'.- M.: Iskusstvo, 1974.- 310 s.
- 1.8. Farmet H.G. Islam. -Musikgeschichte in Bildern. -Lei'zig, s.a.Bd 3. Lfg.2.- 196 r.
- 1.9. Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida)/.diss.s.f.n.O'z. B.A.S.I.T.I.(arxiv).

2. Qo'lyozma va arxiv materiallari

- 2.1. Saidiy S.B. Temuriylar davri cholg'ulari. //J. MOZIYDAN SADO, - Toshkent, 2004. №4(24). 26-27 b.

3. Avtoreferat va dissertatsiyalar

- 3.1. Nazarov A.F. Mumtoz iyqoot nazariyasi. San'atshunoslik fanlari doktori ilmiy darajasiga da'vogar dissertatsiyasi.- Toshkent.- 1996.
- 3.2. Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida)/.diss.s.f.n.O'z. B.A.S.I.T.I.(arxiv).



I L O V A L A R

I. Atamalar lug'ati

A

- Aytm** - Xorazm maqomlarining ashula yo'llari.
Aruz - uzun va qisqa bo'g'inlar munosabatiga asoslanuvchi (kvantitativ) she'riy vazn
Ashula - sozandalar shevasida paydo bo'lgan ibora aytm, Qo'shiq

B

- Bayoz** - she'riy majmua, anatologiya, mumtoz yo'llarda aytiladigan matnlar to'plami
Band - kuplet
Barmoq - miqdor nisbatlariga asoslangan (kvalitativ) she'r tizimi
Bozgo'y - kuy shaklining takrorlanuvchi bo'lagi, naqorat

V

- Vazn** - she'riy va musiqiy o'lchov
Vusta - q. avsat

G

- Gardun** - (f.t. falak siymosi. Taqdir taqozosi) maqom cholg'u yo'llarida usul va kuy nomi
Go'yanda - (f.t. aytuvchi) ilohiy mavzudagi ashulalar ijrochisi

D

- Daromad** - maqom yo'llarida shakl birligi; boshlang'ich bo'lak
Diapazon - tovush qo'lami
Diatonika - tovushqator turi
Doyra - q. advor, (boshi oxiriga ulangan aylana, islom ramziyatida cheksizlik, mukammallik ifodasi)
Dugoh - maqom va turkum nomi

Yo

- Yopiq tizim** - muayyan musiqiy an'analarning muqimlashgan barqaror shakl

J

- Jins** - dastlabki lad birikmalari

Z

- Zamzama** - yarim ovozda xirgoyi qilish, she'rsiz "o" lab aytish, so'zsiz qo'shiq
Zarb - urg'u, cholg'ularda tovush manbaini harakatga keltiruvchi kuch; dutor va tanburda o'ng qo'l harakati
Zarbu-l-qadim - yakka "bum" va "bak" dan iborat birlamchi doira usuli

I

- Ilmi iqo** - ritm xaqida ta'limot
Iroq - maqom va turkum nomi
Ist - (f.t.to'xtash) pauza

Y

- Yo'l** - kuyning eski nomlaridan biri

K

- Kompozitsiya** - badiiy asar (yaxlit tartibga keltirilgan) asarlarida navbati murattabning boshlang'ich qismi
Kuy - tovushlar vositasida ifodaqilingan fikr
Lad - musiqa asarining parda tizimi
Lang usul - Talqin usulining shevada kelishi, cho'loq usul

M

- Maqomot** - maqom so'zining ko'pligi; O'rta Osiyo maqomlarining yagona tizimini bildiruvchi ibora
Maqom - (a. o'rin, to'xtov, joy) musiqiy istilohda: klassik musiqa janri; muayyan parda asosidagi kuy va ashulalar majmuasi
Maqom yo'llari - maqom uslubidagi kuy va ashulalarning mustaqil ko'rinishlari
Ma'no - badiiy asarning ichki mazmun-mohiyati
Miyonparda - o'rta parda
Miskin - (a. xasta, xokisor) Xorazm dutor maqomlarining mazkur nomdagi turkumi; qadimiy mumtoz kuy yo'li
Mutrib - dunyoviy sozandalar, shodlik kuychilari
Murabba' - (a. to'rtlik) maqom turkumlarida muayyan usul va cholg'u qismining nomi
Muxammas - (a. beshlik) maqom turkumlarida muayyan usul va cholg'u qismining nomi
Mushkilot - (a. shaklning ko'pligi) Shashmaqom cholg'u bo'limlarining umumiy nomi; sof musiqiy shakl, kuy
Muqaddima - (a. kirish, boshlanish) Xorazm maqomlarining tarkibiy qismi
Mug'ulcha - Shashmaqomga nazira turkum sho''ba

N

Navba - (a. ketma-ket keluvchi) turkumli musiqiy asarlar
Navbati murattab - (a. tartiblashgan navba) turkumli asarlarning muayyan shakli; Shashmaqom prototipi
Navo - maqom va turkum nomi
Nazm - (a. tuzilgan) she'riy asar
Nasr (نصر) - (a.ko'mak, g'alaba) muayyan usul nomi
Naqsh - musiqa shakli

O

- Ochiq tizim** - musiqiy an'analarning erkin o'zgaruvchan shakli
- Og'ir ufor** - ufor turlaridan

P

- Payvand** - maqom turkumlarida qismdan-qismga silliq o'tish
- Panjgoh** - kuy va sho''ba nomi
- Parda** - cholg'u dastasidagi bog'lamlar; kuy asosini tashkil qiluvchi tovush tizimi; lad
- Peshrav** - (f.t. oldinda keluvchi) musiqiy shakl; cholg'u kuylarining rivojlanish tamoyillari

R

- Rahoviy** - Xorazm dutor maqomlarining mazkur nomdagi turkumi
- Raqsi samo'** - zikr raqslari
- Risola** - sozandalar uchun ilmiy va amaliy qo'llanma
- Rost** - maqom va turkum nomi

S

- Sabab** - aruz vaznining dastlabki elementlaridan biri
- Savt** - (a. tovush) qo'shiq, ashula; Shashmaqomda nazirasifat turkum
- Saqil** - (a.og'ir, vazmin) aruz vaznlaridan; maqomlarda doira usuli va unga muvofiq cholg'u qismining nomi
- Saraxbor** - (f.t. boshlanishdan darak beruvchi) Shashmaqom ashula bo'limlarining boshlang'ich qismi
- Saroy sozandalari** - o'tmishda yuksak martabaga erishgan sozandalar
- Segoh** - maqom va turkum nomlari
- Sobit** - (a. muqim, o'rnashgan) jins tarkibidagi barqaror pardalar
- Sozanda** - musiqachi
- Suvora** - (f.t. minmoq, otliq) maqomlarda muayyan usul va qism nomi; ilohiy aytilar
- Sukun** - (a. tinish) notada jimlik alomati, pauza
- Tani maqom** - Shashmaqomda saraxbor deb yuritiladi
- Tasnif** - (a. tartiblashtirilgan) Shashmaqom cholg'u bo'limining boshlang'ich qismi
- Taqlid** - o'xshatish, qiyoslash

U

Ustoz

- bilim va mahoratda yetuklik timsoli

Usul

- (a. asos) mantiqan tugal vazn birligi, maqom ijrosida doyrada chalinadigan ritmik formula

Ufor

- (a. ifor, xushbo'y) maqom turkumlarining ko'tarinki kayfiyatdagi bo'lagi

Ushshoq

- (a. oshiqqlar) kuy va sho''ba nomi

F

Fosila

- aruz vaznining dastlabki elementlaridan biri

X

Xonanda

- aytuvchi

Ch

Chapandoz

- (f.t. andoza teskari) talqin usulida birinchi zarbga so'z o'qilishi, talqin usulining teskari ko'rinishi

Chertim yo'li

- Xorazm maqomlarida cholg'u kuylarining umumiy nomi

Chorgoh

- kuy va sho''ba nomi

Chorzarb

- zikr usullari va ashula yo'li

Sh

Shashmaqom

- maqomlarning muayyan shakli

Sho''ba

- (a. bo'lim) maqom ichidagimaqomlar

Ya

Yakka zarb

- bir yo'nalishdagi zarblarning muntazam takrorlanishi

O'

O'n ikki maqom

- jamlar tizimining mayyan kategoriyasi

Q

Qashqarcha

- Savt va Mug'ulcha turkumlarining tarkibiy qismi va usullari

Qo'sh zarb

- bir yo'nalishdagi ikki zarbning ketma-ket kelishi

G'

G'azal

- (a. ishq ifodasi) sharqda keng tarqalgan she'r shakli; navbati murattab turkumining tarkibiy qismi

H

Hafif

- (a. yengil) saqilga muqobil usul va unga muvofiq kuy nomi

Hijo

- (f.t. bo'g'in) she'riyat vaznidagi dastlabki birlik

Hofiz

- (a. Quronni yod biluvchi go'zal ovoz
sohibi) maqom ustozi